

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE ARTISTIC SIGNIFICANCE OF LETTERS IN THE WORKS OF EASTERN TURKESTAN POETS AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Shahlo Karimova*Associate Professor of Continuous Education Pedagogy**Oriental University**Email: shkarimova1984@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: epistolary heritage, letter, Kokand literary circle, poetic letter, poetics, artistic imagery, Uzbek literature.

Received: 01.11.25**Accepted:** 02.11.25**Published:** 03.11.25

Abstract: This article analyzes the epistolary heritage created in the Kokand literary environment at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries, focusing on the genre characteristics, artistic-aesthetic value, and historical significance of poetic and prose letters. The research discusses not only the communicative function of letters but also their poetic expression, figurative language, and role in revealing the author's individuality and maintaining literary connections. Through examples from the works of Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza, Nasrulloh qori Farxatiy, Barqiy, and Dilafor, the study highlights the importance of the epistolary genre in the history of Uzbek literature.

XX ASR BOSHLARIDA SHARQIY TURKISTON SHOIRLARI IJODIDAGI MAKTUBLARNING BADIY AHAMIYATI

Shahlo Karimova*Oriental Universiteti**Uzluksiz ta'lim pedagogikasi dotsenti**shkarimova1984@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston***МАҚОЛА ҲАҚИДА**

Kalit so'zlar: epistolyar meros, maktub, Qo'qon adabiy muhiti, she'riy maktub, poetika, badiiy tasvir, o'zbek adabiyoti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston shoirlari va Qo'qon adabiy muhiti shoirlari yaratgan epistolyar meros, xususan, she'riy va nasriy maktublarning janr xususiyatlari, badiiy-estetik ahamiyati va tarixiy qimmati

tahlil etilgan. Tadqiqotda maktublarning oddiy yozishma vositasi sifatidagi funksiyasidan tashqari, ularning poetik ifoda imkoniyatlari, badiiy tasvir vositalari, shoir shaxsiyatini ochib berishdagi oʻrni va adabiy aloqalar rivojidadagi roli yoritilgan. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza, Nasrullo qori Farxat, Barqiy va Dilafor singari ijodkorlarning maktublari misolida epistolyar janrning oʻzbek adabiyoti tarixidagi oʻrni va ahamiyati ilmiy tahlil asosida yoritilgan.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПИСЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ ПОЭТОВ ВОСТОЧНОГО ТУРКЕСТАНА НАЧАЛА XX ВЕКА

Шахло Каримова

Доцент кафедры педагогики непрерывного образования

Восточный университет

shkarimova1984@gmail.com

Тошкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: эпистолярное наследие, письмо, Кокандская литературная среда, поэтическое письмо, поэтика, художественные средства, узбекская литература.

Аннотация: В данной статье анализируется эпистолярное наследие, созданное в Кокандской литературной среде конца XIX – начала XX веков. Особое внимание уделено жанровым особенностям, художественно-эстетической ценности и историческому значению поэтических и прозаических писем. В исследовании рассматриваются не только коммуникативные функции писем, но и их поэтические возможности, использование художественных средств, раскрытие личности автора и роль эпистолярного жанра в развитии литературных связей. На примере творчества таких поэтов, как Мукимий, Фуркат, Завкий, Хамза, Насрулло кари Фархатий, Баркий и Дилафор, раскрывается значение эпистолярного жанра в истории узбекской литературы.

Kirish. Maktub – sheʼriy janr sifatida koʻp asrlik mumtoz adabiyotimizda larning boshqa adabiy janrlardan ustun jihati shundaki, ularda muallifning shaxsi, his-tuygʻulari, faoliyati, fikrlari, davr ruhi va ijtimoiy muhit oʻz aksini topadi. Bu asarlar nafaqat estetik qiymatga, balki tarixiy hujjatlik xususiyatiga ham ega boʻlib, unda oʻsha davr jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy hayot, maʼnaviy-maʼrifiy muhit haqidagi faktik maʼlumotlar ifodalangan boʻladi. Shu jihatdan maktublar

o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy manzarasini o'rganishda muqim manba vazifasini bajaradi.

XIX asr va XX asrning birinchi yarmigacha maktublar eng faol badiiy usullardan biri bo'lgan. Ular insonlar o'rtasidagi aloqa, fikr almashuv, ma'naviy bog'liqlikni ta'minlagan. Ayniqsa, she'riy shaklda yozilgan maktublar o'zining g'oyaviy mukammalligi, poetik tili, ifoda uslubi va badiiy timsollar tizimi bilan boshqa janr namunalari bilan teng darajada san'at asari sifatida qadrlanadi. Ko'p hollarda bunday maktublar o'zaro adabiy musobaqa yoki ijodiy muloqot tusini olgan. Shoir maktubni yo'llayotgan shaxsning maqomi, nufuzi, ilmiy yoki adabiy mavqeini inobatga olib so'zini sinchkovlik bilan tanlagan, javob yozuvchi shoir ham shu darajada badiiy mahorat bilan javob bergan. Shu sababli maktublar o'zaro adabiy aloqalar va musobaqaviy ruh mahsuli sifatida e'tirof etiladi.

Qo'qon adabiy muhitida faoliyat yuritgan ijodkorlardan Zavqiyning Furqatga, Hamzaning Mulla Davlatga, Muqimiyning Ro'zimuhammad jiyaniga, Hamzaning Mahmudjonga yozgan lirik maktublari, shuningdek, Muqimiyning, Furqatning "Sabog'a xitob" nomli masnaviy shaklidagi maktublari haqiqiy badiiy asarlar darajasiga ko'tarilgan. Ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmuniy yo'nalish bilan ajralib turadi.

Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, o'zbek va fors adabiyotlarida real yoki xayoliy shaxsga yo'llanadigan, asosan she'riy shaklda yozilgan badiiy asar turi" sifatida izohlangan. Bu ta'rif maktub janrining badiiy mohiyatini, uning adabiy qadriyat sifatida e'tirof etilganini ko'rsatadi. Maktublar o'zida g'azal, masnaviy, muxammas, ruboiy kabi turli she'riy shakllarning elementlarini mujassamlashtirib, epistolyar adabiyotning murakkab tizimini vujudga keltirgan. Ular nafaqat individual ijod mahsuli, balki adabiy an'ana va o'zaro ta'sir jarayonining ham ifodasidir. Har bir maktub o'z zamonasidagi badiiy muhit, poetik maktab, shoirlararo aloqalar va ularning ma'naviy yaqinligini ko'rsatadi.

Izlanishlarimiz natijasida Sharqiy Turkistondagi ijodkorlar orasida Nasrulloh qori Farxatiy, Barqiy va Dilaforlar merosi tarkibida she'riy janrlar tarkibida maktub ham bor. Maktublar shoirlar ijodida muhim o'rin tutadi. Ular asosan Sharqiy Turkiston, ya'ni Shinjong hududida yashab ijod etgan o'zbek shoirlaridir.

Nasrulloh qori Farxatiy G'uljaga ko'chib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashagan. U Toshkentdagi ustozlari va safdoshlariga muntazam maktublar yo'llab turgan. Farxatiy o'z she'r daftoriga XVIII–XIX asrda yashagan o'nlab shoirlar — Navoiy, Qozi, Muqimiy, Furqat, Miskinlarning asarlarini ko'chirgan. Bu holat uning o'zbek adabiy an'analarga sodiqligini va ustozlar bilan adabiy aloqalarini davom ettirganini ko'rsatadi. Shoirning "Keldi xat" nomli asari Miskin bilan bo'lgan ijodiy rishtaning dalilidir.

Shuningdek, Barqiyning “Xo‘tanda bir birodarog‘a maktub” asari hamda Dilafgorning “Dilafgorning Xislatga maktubi” nomli she‘rlari mazmunan lirik, usluban badiiy, shaklan epistolyar xususiyatga ega bo‘lib, oradagi masofa, sog‘inch, do‘stlik va ma‘naviy rishtalarni ifodalaydi.

Xat va maktub tipidagi asarlar faqatgina oddiyxabar yetkazish vositasi bo‘lib qolmagan, balki o‘zining janr xilma-xilligi, poetik ifoda boyligi, badiiy timsollar tizimi va til xususiyatlari orqali o‘sha davr ruhiy va ijtimoiy muhitini yoritgan. Shu bois ular o‘zbek adabiyoti tarixida nafaqat badiiy hodisa, balki madaniy va tarixiy manba sifatida ham alohida ilmiy qimmatga ega. “Keldi xat” (Ustozim Miskindan xat olib) g‘azal janrida yozilgan bo‘lib, nom sifatida kelgan “Keldi xat” sintaktik birligi radif hisoblanadi:

Ey ko‘ngul, xushlab qadrdon oshnodin keldi xat,

Tur, sadoqat chin ahli vafodin keldi xat. Shu ikki misradayoq qofiya hamda vazn mukammalligi oydinlashadi, shu bilan birga, g‘azal matlasidagi birinchi misrani maqta’ – oxirgi misrada takrorlab, takrir san‘ati ko‘rinishlaridan – “radd ul matla’ yaratilgan:

Farhatiy farhatg‘azo maktub olib mundog‘ dedi:

Ey ko‘ngil xushlab qadrdon rahnamodin keldi xat.

Farhatiy chinakam so‘z san‘atkori sifatida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishga, tilning lug‘at qatlamidan, yangi so‘zlar kashf etib, uni butun asar mazmuniga singdirib yuborishdan huzurlangan, albatta. Masalan, g‘azaldagi Farhatg‘azo so‘zining g‘azo qismi – “ko‘ngillarga farahbaxshlik, xursandchilik bag‘ishlovchilik” xususiyatlari bilan matn tarkibida alohida vazifa bajarmoqda. Adib yana g‘azo so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga yaqin birliklardan mohirona o‘xshatishlar tuzib borgan, ya‘ni gulshan, xatti rayhon jomasi gul-u rayhon, ahli vafolar o‘sturub, Bog‘i serhosil ulug‘ ato (bog‘bonga nisbat berilmoqda) kabi:

“Xatti rayhon jomasi gul-u rayhondan keldi xat”;

“Naslidin nasliga ko‘p ahli vafolar o‘sturub,

Bog‘i serhosil ulug‘ atodin keldi xat”.

Munavvar (Munis)dan xat kelishi bilan ko‘ngil ko‘zqusini qoplagan g‘am ketgay deb juda go‘zal xulosa berilmoqdaki, bu shoirning yetuk nuqtadonligidan darak beradi. Maktubning yana bir bayti bag‘ridagi ma‘no, noma, nukta, funun, hikmat, aql, xat so‘zlari tanosub san‘atining ajoyib namunasini hosil qilgan:

“Bir jahon ma‘no o‘qitgay nomasin har nuktasi, Zufunun hikmat talab aqlu rasodin keldi xat”. G‘azal bir qarashda qadrli va kutgan insonidan xat olgandan keyin tug‘ilgan hissiyot mahsuli o‘laroq maydonga kelganday tuyulsa-da, u Miskinga javob xati sifatida yozilgan bo‘lib, shogird ustozga ijod imkoniyatlarini namoyish etishga harakat qilganligidan poetik jihatdan go‘zal, tili sodda va boy bir asar vujudga kelgan deb qarashimiz mumkin.

Maktubot janri namunalari shunchaki ma'lum bir xabarni yetkazish uchungina yaratilmagan. Ular badiiy asar sifatida ijod qilingan, ammo ijod mahsullarining mavziy ko'lamini, obrazlari, asarlarining poetik qiyofasi, lingvistik belgilari hamda ijod imkoniyatlari, iqtidorlari bilan farqlanadilar. Shu bilan birga ijodkorning tarbiyalangan muhiti va atrofidagi ziyolilar kim bo'lganidan darak beradi.

“Xo'tanda bir birodaroga maktub” matni Abdug'ofirjon qori Barqiy ga tegishlidir. Shoir haqidagi dastlabki ma'lumotlar yuqorida qayd etilgan to'plamda berilgan. “Xo'tanda bir birodaroga maktub” mumtoz lirikaning muxammas usulida, shir-u shakar she'r usulida yozilgan. She'riy maktub muxammas tarzida yozilgan bo'lib, 5 banddan iborat.

“Xo'tanda bir birodaroga maktub” muxammasida shoir Barqiyning ota yurtida qolgan yor-u do'stlari, yaqinlari, hamfikir oshnolari ahvolotini lirik qahramon arzi ahvolini aytib ham ko'rishmoq istagida yurak dardlarini mazkur maktubga to'kadi.

Muxammasning 3-bandi ritorik so'roqlardan iborat:

Bu dunyo turub miskin murodi uzro yetkon kim?

Na yaxshi baxt-u iqqollik erur ul qaysi inson kim?

Bo'lur oning ishi hal doimo ranji osonkim,

Hammaga to azaldin bo'ldi oxir xonumon kim?

Ki dushvor ishga qoldim toleyim ul soyada o'ynor. Mazkur bandning 4 misrasida baxt-u iqqol, tole ma'nodosh so'zlari oxirgi misradagi “dushvor ishga qolgan” o'z ahvoloti tasviriga qarshi qo'yiladi. Bunday so'zlar lirik qahramon ahvolini va u qo'msayotgan qadrdonini qanchalar kutayotgani va diydorga oshiqayotganini ifodalashda qo'l kelmoqda.

Demak, Barqiy misralarida o'z dard-ahvolini Xo'tan sahrolarida darbadar kezgan Mashrab qissasiga ishora qilib o'zining ahvolotini qiyoslamoqda. Talmeh san'ati shoirning sog'inchini hayotiy asoslar bilan ta'sirchan ifodalashda qo'l kelmoqda. O'z hol-ahvolining darajasini “Ozib hushdin bu Barqiy oqibat laylon bo'lub ketdi” misralarida xalqona ifodalar shoir she'riyatining soda va xalqchil ekanidan darak berib turibdi. Ushbu muxammasda chuqur ijtimoiylik ustunlik qiladi, charxning nosozliklaridan, adolatsiz muhitning shaxs boshiga tinimsiz keltirayotgan jabr-u jafosidan shikoyat, omadsizlik va e'tiborsizlikdan norozilik ohanglari kuchli.

Xulosa. Maktublarning yozilishidan asosiy maqsad, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xabar yoki murojaatni yetkazishdan iborat bo'lsa-da, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda yashab ijod etgan maktubnavis shoirlar bu shaklni oddiy yozishma darajasida qoldirmadilar. Ular o'zlarining she'riy hamda nasriy maktublarini turli badiiy tasvir vositalari — tashbeh, istiora, tazod, tajnis, kinoya, mubolag'a kabi san'atlar bilan boyitib, ularni yuqori badiiy darajadagi asarlar sifatida yaratdilar.

Natijada, bu maktublar shunchaki axborot yetkazish vositasi emas, balki shoirning ichki kechinmalari, estetik didi va poetik tafakkurini ifodalovchi mustaqil badiiy janr namunalari sifatida shakllandi. Aynan shu xususiyatlari tufayli Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan epistolyar asarlar o‘zbek adabiyotining janr tizimini boyitgan, so‘z san’atining imkoniyatlarini kengaytirgan muhim hodisa sifatida qadrlanadi.

Bu davr maktublarida shoirning shaxsiy dunyoqarashi bilan bir qatorda milliy ruh, vatanparvarlik, sadoqat, do‘stlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topadi. Shu bois, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan maktublar o‘zbek adabiyoti tarixida badiiy-estetik qiymati yuksak manba sifatida alohida o‘rin egallashi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент. 1960
2. Мухлисов Ю. Асрлар ва асарлар. Алматы: Наука, 1973 (Muxlisov Yu. Ages and works. – Almaty: Nauka. 1973)
3. Қодирий Р. Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”. 1-китоб. 52-60 б. 1963
4. Солихова Х. (1995). Уйғур достончилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий “Ҳамса”сининг ўрни //фил.ф.док.... диссертацияси. – Тошкент: ЎЗМУ (Solihova X. The role of Alisher Navoi’s “Hamsa” in the development of Uyghur epics and prose // Ph.D. - Tashkent: National University of Uzbekistan 1995).
5. Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеърлятида поэтик мазмун ва янгилинишлар (Завкий ва Мухсиний ижоди мисолида). Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент. 2018
6. 1989. شىنجاڭ ئۆزبېكىستان يازغۇچىلىرى. نەشر قىلىشقا تەييارلانغان: قادىر ئەكبەر. شىنجاڭ خەلق نەشر. شىنجونگ ўزбек адаблари. Нашрга тайёрловчи: Қодир Акбар. Шинжонг халқ нашриёти. 114-140 бетлар. 1989.
7. Хурматжон Фикрат., Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature. Urumchi: Xinjiang People’s Publishing House, 2005. (in Uyghur). 2005
8. Райхонов Д. Место и значение произведений Навои в литературной жизни уйгуров. АКД. – Алмута, (Rayxonov D. The place and significance of the works of Navai in the literary life of the Uyghurs. AKD. - Almuta, 1992). 1992.
9. Каримова Ш. Шинжонг ўзбек шоирлари ижодиётида Завкий таъсири. Шинжонг Давлат университети хабарномаси. 4-сон. 2012
10. <https://library.uygur.com/kitab/sh/Shinjang-Universititi-ilmi-jurnili-080-1999-4.p0d>.